TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH SHAKL VA METODLARI

Ergashev R.N. - GulDPI Pedagogika kafedrasi dotsenti

O‘zbekiston Respublikasi OO‘MT Vazirining 2021-yil 19 oktyabrdagi "Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida"gi 35-2021-son bo‘yrug‘i, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2005-yil 21-fevraldagi 34-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy Nizom, 2009 yil 14 avgustdagi 286-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnoma” kabi davlat ta’lim xujjatlarida talabalar mustaqil ishlarini samarali tashkil etish, uni nazorat qilish va baholash tartibi belgilab berilgan. [1,2,3,4]

Bugungi kunda OTM talabalarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoniga quyidagicha ***talablar*** qo‘yilmoqda:

- kasbiy faoliyatni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiluvchi vosita va usullarni zamon talablariga moslashtirish;
- bo‘lg‘usi mutaxassislarning kasbiy faoliyatga oid qarorlarni qabul qilishda mustaqil harakat qilishlari, uning mobillik kabi jihatlariga mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish;
- talabalarning kasbiy kompitentligini ta’minlash;
- zamon talablari asosida oliy ta’lim strategiyasini qayta ko‘rib chiqish;
- talabalarning o‘z amaliy faoliyatlari natijalarini nazariy jihatdan chuqur anglab etishlariga erishish;
- ularning bilim olishlariga bo‘lgan ichki motivlarini uyg‘otishga qaratilgan o‘qitish vosita va usullarini qo‘llash;
- fundamental bilimlarning ahamiyatini oshirish;
- ta’limni individuallashtirishga alohida urg‘u berish;
- TMI hajmini ko‘paytirgan holda, o‘qituvchi rahbarligida amalga oshiriluvchi o‘quv faoliyatidan mustaqil ta’lim faoliyatiga o‘tish. [3]

Talaba mustaqil ishining asosiy **maqsadi** – talabalarda, fan o‘qituvchisining rahbarligi va nazorati ostida, muayyan fan bo‘yicha ma’ruza, amaliy ва seminar mashg‘ulotlaridan berilgan o‘quv topshiriqlarini mustaqil ravishda bajarish jarayonida zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Talaba mustaqil ishining **vazifalari:**

- fanlardan ma’ruza (amaliy, seminar, laboratoriya) mashg‘ulotlarida berilgan bilimlarni mustaqil tarzda puxta, mukammal o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- tavsiya etilgan adabiyotlarni institut ARMida va internet saytlaridan topish, mavzularni o‘rganish jarayonida kerakli ma’lumotlarni izlab yig‘ishning qulay usullari

va vositalarini aniqlash;

- o‘quv va ilmiy adabiyotlar, ilmiy, ilmiy-metodik jurnallar hamda me’yoriy hujjatlar bilan ishlash, elektron o‘quv adabiyotlar va ma’lumotlar bankidan foydalana olish va zarur ma’lumotlarni to‘plash hamda tahlil qilish;

- internet tarmog‘ining tavsiya etilgan saytlaridan maqsadli foydalanishga o‘rgatish;

- o‘quv mashg‘ulotlarida berilgan topshiriqlarning ratsional yechimini topish va tahlil etish;

- fanlardan mustaqil ish topshiriqlarni, hisob chizma ishlarini, kurs ishi va kurs loyihalarini bajarishda tizimli va ijodiy yondoshishga o‘rgatish;

- mustaqil ish topshiriqlarini bajarish jarayonida ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g‘oyalarni asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish;

fan bo‘yicha talabaning mustaqil fikrlash, bilim, ko‘nikma va tasavvur olamini hamda muammolarni mustaqil hal qila olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. [4]

Talabalarning mustaqil ishi (TMI) – bu talabaning o‘ziga xos o‘quv faoliyati bo‘lib, u didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, o‘qishga qiziqtirishga va muayyan fan sohasida bilimlarni oshirishga yo‘naltirilgan.

TMI mazmuni mantiqiy fikrlashni, ijodiy faollikni, o‘quv materialini o‘zlashtirishda tadqiqotchilik yondashuvini shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriqlarni bajarish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Odatda TMI talabaning mustaqil ta’limi (TMT) bilan birgalikda auditoriyadan tashqarida bajariladigan o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi (O‘RTMI)ni ham o‘z ichiga oladi.

Kunduzgi ta’lim shaklida bakalavriatda TMIning umumiy soatlari fan hajmining yarmi (50%)ni tashkil etadi va uning ham deyarli yarmi O‘RTMIga ajratiladi. ***Sirtqi ta’limda*** TMI hajmi fan hajmining 4\5 qismini tashkil etishi maqsadga muvofiq. [3]

Talabalar mustaqil ishini texnologik jihatdan tashkil etish quyidagi ***komponentlarni*** o‘z ichiga oladi: mustaqil ish maqsadlari, TMIning mazmunini tanlash, topshiriqlarni tanlash, nazoratni tashkillashtirish texnologiyasi.

Maqsadlarni tanlab olishda DTSda belgilangan maqsadlar asos hisoblanadi, undan kelib chiqqan holda bo‘lajak pedagoglik kasbiga kirish, kasbiy-pedagogik nazariyalar va tizimlar, pedagogik texnologiyalar va boshqalar bo‘yicha maqsadlar yanada aniqlashtiriladi. Tanlangan maqsadlar «*maqsadlar taksonomiyasini*» aks ettiradi. Masalan: kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash manbalarini bilish, mustaqil ishlarni tashkil etishda o‘z-o‘zini tarbiyalashning turli shakllaridan foydalanish. Bundan tashqari, mustaqil ishning maqsadlari motivatsion, kognitiv, faoliyat tarkibiy qismlaridan tashkil topgan kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalashga tayyorgarlik tuzilmasiga mos kelishi lozim.

Mustaqil ish mazmunini tanlashda quyidagilar asos bo‘lib xizmat qiladi:

- DTS (davlat ta'lim standarti);

- o‘z-o‘zini tarbiyalash manbalari (adabiyotlar, tajriba, intros-pektsiya);

- talabalarning individual-psixologik xususiyatlari (ularning tez ilg‘ash qobiliyati, bilimlarni o‘zlashtirganlik darajasi, intellekti, motivatsiyasi, o‘quv faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari).

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriq va vazifalarning turli darajadagi maqsadlarga mos kelishi, har bir tavsiya etilgan fanning mazmunini aks ettirishi va talabalar bilish faoliyatining turli tiplari va darajalarini qamrab olishi lozim.

Nazoratni tashkillashtirish texnologiyasi o‘z ichiga nazorat vositalari, nazorat bosqichlari, nazoratning individual shakllarini sinchkovlik bilan ishlab chiqish va saralab olishni qamrab oladi.

Talabalarning mustaqil ishida samaradorlikka erishish shartlari:

1. Auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ishlar hajmlarining o‘zaro to‘g‘ri nisbatini ta'minlash zarur.

2. Talabaning auditoriya va auditoriyadan tashqari ish faoliyatini uslubiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqalarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, bosqichma-bosqich talabada mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirib borish lozim.

3. Mustaqil ishni ijodiy jarayonga aylantirish uchun talabani zarur uslubiy materiallar bilan ta'minlash talab etiladi.

4. Mustaqil ishni tashkil etish va uning bajarilishini nazorat qilish va mustaqil ishning sifatli bajarilganligi uchun talabani rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalar mustaqil ishi quyidagi ***shakllarda*** joriy etilishi mumkin:

1. Talabaning bevosita o‘zi tomonidan *(mobil qurilmasi orqali*) amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari (talabaning mustaqil ta'limi).

2. An'anaviy shakldagi o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi.

3. Elektron shakldagi (*mobil qurilmasi orqali*) o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi.

Talabaning bevosita o‘zi tomonidan mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlariga (TMT) quyidagilarni kiritish mumkin:

• **darsga tayyorlanish** – ma'ruza matnlari, podkastlar, video materiallar, amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlari bayonlarini o‘rganish;

• **axborot izlash** – o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarini o‘rganish;

• **FAQ** (ko‘p so‘raladigan savollar) – o‘zini qiziqtirgan muammolarga o‘rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;

• **Forum** – fan mavzulari bo‘yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish;

• **Test echish** – o‘rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materiallarni mustahkamlash;

• **Nazorat ishiga tayyorlanish** – fan bo‘yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko‘rish.

O‘qituvchi rahbarligidagi talabalar mustaqil ishi yuklamasi o‘qituvchining yuklamasiga to‘laligicha kirmaydi, biroq kontakt mashg‘ulotlar uchun unga alohida yuklama belgilanadi (hisob-chizma ishi, kurs ishi, kurs loyihasi, bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy izlanuvchiga rahbarlik, tayanch doktorantga rahbarlik va h.k.

TMI innovatsion texnologiyalarga asoslangan bo‘lishi kerak. O‘RTMIning auditoriyadagi shakli berilgan topshiriq doirasida talabalarning darslik va birlamchi manbalar, guruhli topshiriqlarni bajarish, yakka tartibdagi tahliliy faoliyatlarni ko‘zda tutadi.

O‘qituvchi rahbarligidagi talabalar mustaqil ishi har bir fan bo‘yicha butun akademik o‘qish davrida sana, vaqti, auditoriyasi va tyutorlarni ko‘rsatgan holdagi jadval bo‘yicha o‘tkaziladi. O‘RTMI doirasidagi mashg‘ulotlar maslahat va interfaol shakllarda bo‘lishi mumkin.

Ularning nisbati o‘rganilayotgan fanning murakkabligi, ularni o‘rganishga ajratilgan audtoriya soatlari hajmi, talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan aniqlanadi.

An’anaviy shakldagi o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

• **masala yechish** – amaliy mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha berilgan masalalarni echish va uni yozma tarzda taqdim qilish;

• **referat** – muammoning yozma bayoni, bunda adabiy manbalar sharhlanadi yoki ilmiy ish, kitoblar tahliliy bayon qilinadi;

• **kollokvium** – o‘quv modulining nazariy qismini o‘zlashtirilishini tekshirish maqsadida suhbat uyushtirish;

• **esse** – dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;

• **taqdimot** – berilgan mavzu bo‘yicha slayd va video materiallar vositasida chiqish qilish;

• **keys-stadi** –muammoli pedagogik vaziyatlar bo‘yicha belgilangan shakldagi topshiriqlar orqali yechim izlash;

• **rolli o‘yinlari** – pedagogik faoliyat jarayonlarini imitatsiya qilish, sahnalashtirish, rollarni ijro qilish orqali kasbiy ko‘nikmalar orttirish;

• **glossariy** – berilgan mavzu bo‘yicha atamalarni qisqa izohlash;

• **guruh loyihasi** – 3-5 talabaning hamkorlikda loyiha ishini bajarishi;

• **hisob-chizma ishlari** – odatda texnik fanlar (muhandislik grafikasi, elektrotexnika, axborot texnologiyalari va h.k.) bo‘yicha amalga oshiriladigan belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida yoziladigan grafik va hisob ishlari;

• **kurs ishi** – fan yoki fanlar majmuasi muammolari bo‘yicha belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida bajariladigan yozma va hisob ishlari;

• **kurs loyihasi** – fan yoki fanlar majmuasi (texno-pedagogik jarayon, mutaxassislikka oid loyiha ishlari bajariladigan fanlar) muammolari bo‘yicha bajariladigan, grafik chizmalar ilova qilinadigan, belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida yoziladigan hisob ishlari;

• **diplom loyihasi** – mutaxassislik faniga oid berilgan mavzu bo‘yicha o‘quv-tarbiya jarayonini loyihalashga qaratilgan, hisobot ishlari bilan bayon qilinadigan, belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida yoziladigan loyihaviy ish;

• **amaliyot hisoboti** – o‘tkazilgan malakaviy amaliyot (tanishuv, ishlab chiqarish, bitiruv oldi amaliyotlari) bo‘yicha belgilangan uslubiy qo‘rsatmalar asosida yoziladigan hisobot;

• **fan to‘garaklarida ishtirok etish** – talabaning fan to‘garaklarida maket, slayd, namunalar kabi ko‘rgazmali materiallarni tayyorlashi;

• **tanlovlarda ishtirok etish** – talabaning o‘qituvchining ilmiy rahbarligi ostida turli tanlovlarda ishtirok etishi (“Yosh ixtirochi”, talabalar startap loyihalari va h.k.);

• **fan olimpiadalarida qatnashish** – fanlar bo‘yicha OTMlar o‘rtasida o‘tkaziladigan olimpiadalarda ishtirok etish (pedagogika, psixologiya, ixtisoslik fanlari, pedagogik va axborot texnologiyalari va h.k.);

• **ilmiy anjumanlarda ma’ruza qilish** – fanga oid ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘yicha OTM, Respublika va xalqaro miqyoslarda o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilish;

• **ilmiy tezis va maqolalar chop etish** – ilmiy anjumanlarning to‘plamlarida tezislar va ilmiy jurnallarda ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘yicha maqolalar chop qilish;

• **o‘quv-uslubiy materiallarni tayyorlashda ishtirok etish** – darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatma va boshqa o‘quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtirok etish.

Elektron shakldagi (*mobil qurilmasi orqali*) o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishiga quyidagi shakldagi topshiriqlarni kiritish mumkin**:**

• **Link** – internet havolasini ochib, unda keltirilgan video yoki matn shaklidagi materialni belgilangan hajmda izohlash;

• **Chart** – jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish;

• **Q\A** – masofaviy ta’lim platformasida o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga belgilangan hajmda yozma javob berish;

• **Review** – taqdim qilingan manbaga annotatsiya yozish;

• **SWOT** – talaba biror tushunchani cheklangan hajmda SWOT – tahlil qiladi;

• **Interview** – muammoni tadqiq qilish bo‘yicha suhbat uyushtirish va uni masofaviy ta’lim platformasiga yuklash;

• **Google Apps** – Google Classroom platformasida hamkorlikda slaydlar, jadvallar, matnlar shaklidagi topshiriqlarni bajarish;

• **Dayjest** – berilgan mavzu bo‘yicha internet-havolalar to‘plamini tayyorlash, kartoteka tuzish va ularni qisqa izohlash;

• **Report** – talabalar laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha hisobotlarini masofaviy ta’lim platformasiga kiritishadi.

O‘qituvchi rahbarligidagi talaba mustaqil ishlarining bayoni tegishli fan modullari, uning mavzulari, topshiriqlari, o‘tkazish shakllari, soatlar hajmi ko‘rsatgan holdagi **sillabusda** o‘z aksini topadi.

Talabalar mustaqil ishini **masofaviy shaklda** tashkil etish va ta’lim natijalariga erishish bilim olish ishtiyoqida o‘qiyotgan talabalar uchun eng maqbul variant hisoblanadi. Bu shaklda talabaga turli dastur va ilovalarda ishlashni taklif qilish orqali ularda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish va buni hatto auditoriyadagi mashg‘ulotlardan ham yuksak darajada tashkil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5847-son Qarori. – T., 2019

2. O‘zbekiston Respublikasi OO‘MT Vazirining 2021-yil 19 oktyabrdagi "Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida"gi 35-2021-son bo‘yrug‘i. – T., 2021

3. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2005-yil 21-fevraldagi 34-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy Nizom. – T., 2005

4. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009 yil 14 avgustdagi 286-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnoma”. – T., 2009